

Mutaxassislar malakasi oshirilmoqda

// 11.08.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/mutaxassislar-malakasi-oshirilmoqda>



Yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, sifatli ish olib borishga erishish, xavfsizlikni ta'minlash, mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishda xodimlar malakasini oshirish katta ahamiyatga ega.



Korxonaning o'quv markazida chilangar-ta'mirlovchilarning malakasini oshirish kursi davom etmoqda. 26 nafar mutaxassislar ikki hafta davomida o'z bilim va ko'nikmalarini oshirishadi.



Malaka oshirish nafaqat ishlab chiqarish majmualari va sexlardagi ish unumdorligini yanada oshirish, balki

o'quv kursi yakuni bo'yicha sertifikatga ega bo'ladigan xodimlarning moddiy manfaatdorligini yanada yaxshilashda ham muhim o'rin tutadi.